

## NYC maktablari hisobi

### Umumiylar ma'lumot

NYC maktablari hisobi (NYC MH) - bu veb-tizimga asoslangan ilova bo'lib, u sizga bolangizning o'qishiga va biografiyasiga oid ma'lumotlarni kompyuterda, telefonda yoki planshetda ko'rish imkonini beradi. Bu ilova Ingliz tilidan tashqari yana to'qqizta tilga tarjima qilingan. Siz nafaqat o'quvchingizning o'qish jarayonini kuzatasiz, balki o'quvchingiz va oilangizni qo'llab-quvvatlash uchun boshqa ta'limot manbalarini ham ko'rib chiqasiz.

### MeningO'quvchim

O'quvchingizning quyidagi ma'lumotlarini kuzatib boring:

- Ishtirok etish
- Baholar va tabellar
- Baholash natijalari (testdan olingan ballar)
- Favqulodda aloqa uchun ma'lumot
- Transport vositasida tashish
- Shaxsiy ta'lif dasturi (ingl. *IEP*)
- Raqamli so'rovnoma, shu jumladan COVID-19 bilan kasallanmaganlikni tekshirishga rozilik shakli

### Ota-onalar universiteti

Ota-onalar universiteti oilalar bilan bog'lanish uchun va o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun kurslar, bevosita marosimlar va faoliyatlarining markazlashgan katalogini taqdim etadi.

### Tahqirlanish haqida xabar berish portalı

NYC MH orqali tahqirlanish holatlari haqida o'quvchingizning matabiga xabar bering.

### Qanday qilib NYC maktablari hisobini yarataman?

NYC maktablari hisobini yaratishning uch xil usuli mavjud. Yoki siz bolangizning matabiga shaxsan tashrif buyurasiz, vaqtinchalik kalit so'zga ega bo'lasiz, yoki matabga murojaat qilasiz, telefonda olib boriladigan konferensiya orqali shaxsingizni tasdiqlaysiz va vaqtinchalik kalit so'z olasiz, yoki bolangiz bilan uyga berib yuborilgan xatdagi Hisob qaydnomasi yaratish kodidan foydalanasiz.

### Shaxsan yoki Onlayn

1. Bolangizning matabida uchrashuv belgilang.
2. Yaroqli fofosur'at ID sini (masalan, pasportingiz, haydovchilik guvohnomasi, NYC IDsi), elektron manzilingizni va o'quvchingizning tabelidan topilishi mumkin bo'lgan 9 ta raqamli ID si taqdim eting. Agar telekonferensiya orqali ularishni istasangiz, matab ota-onaning/qaramog'iga olgan shaxsning yoki ishtirok etish huquqiga ega o'quvchingiz shaxsini ovozi yoki ko'rinishiga qarab tasdiqlaydi.
3. Siz matabingizda yoki telekonferensiya orqali hisob qaydnomasini yaratganingizda siz vaqtinchalik kalit-so'z chop etilgan chekni yoki shaxsan yoki elektron manzil orqali qo'lga kiritasiz.
4. <https://schoolsaccount.nyc> havolasiga o'ting va elektron mazilingizni va vaqtinchalik kalit so'zingizni kriting. Vaqtinchalik kalit-so'z faqatgina 30 kun xizmatga yaroqli ekanligini, iltimos, yodda tuting. Sizdan hisob qaydnomangiz uchun yangi kalit-so'z yaratish, xavfsizlik savollarini belgilash va elektron manzilingizni tasdiqlash so'raladi.

### O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish

Sizga bolangiz bilan uyga uzatilgan Hisob qaydnomasini yaratish kodi kerak bo'ladi. Siz bolangizning matabidan ham xat talab qilishingiz mumkin. NYC maktablari hisobini yaratish uchun yoki mavjud hisobga qo'shimcha bolalariningizni qo'shish uchun sizga ushbu kod va bolaning 9 ta raqamli ID si kerak bo'ladi.

1. <https://schoolsaccount.nyc> havolasiga tashrif buyuring va tizimga kirish sahifasidagi "Hisob qaydnomasini yaratish" havolasini tanlang.
2. Bildirishnomalar olishni boshlash uchun ismingizni, elektron manzilingizni va telefon raqamingizni kriting. Asosiy hisob qaydnomasini yaratishda sizga kod kerak bo'lmaydi, ammo o'quvchingizni hisobga ulash uchun yaratish kodi talab qilinadi.
3. Bog'lanish uchun ma'lumotlaringizni kiritganingizdan keyin "Elektron manzilni tasdiqlash" ni tanlang. Bu sahifani ochiqligicha saqlab turing.

4. Tasdiqlash kodini olish uchun elektron pochtangizni oching. Raqamni "Elektron manzilni tasdiqlash" sahifasiga kriting.
5. Kalit so'zni yaratish uchun davom eting.
6. Hisob qaydnomangiz xavfsizligi uchun savollar yaratish uchun davom eting.
7. Siz va o'quvchingiz uchun maxsus qilib yaratilgan Hisob Yaratishning yagona Kodini kriting.

### **Men qanday ma'lumotlarga kira olaman?**

Bolangizning qaydlariga dahldor har qanday voyaga yetgan shaxsga vasiy, vasiy bo'Imagan yoki qo'shimcha foydalanuvchi roli tayinlangan. Bunday mas'ullik ular bolangizning ma'lumotlarini qay darajada ko'rib chiqa olishini belgilaydi. Barcha turdag'i foydalanuvchilar ota-onasi universitetiga va tahqirlash portaliga kira oladilar.

- Vasiy foydalanuvchi sifatida siz bolangizning NYC maktablari hisobidagi barcha ma'lumotlarini ko'ra olasiz. Shuningdek, siz bolangizning ma'lumotlarini ko'rish uchun boshqa voyaga yetgan shaxslarni ham taklif qila olasiz. Shuningdek, vasiy foydalanuvchilar o'quvchining tabelidagi voyaga yetgan shaxslarning favqulodda aloqa uchun ma'lumotlarini yangilashi mumkin, chunki bu ma'lumot FV larda bevosita murojaat qilish uchun kerak.
- Vasiy bo'Imagan foydalanuvchi sifatida siz bolangizning NYC maktablari hisobidagi aksariyat ma'lumotlarini ko'ra olasiz. Vasiy bo'Imagan foydalanuvchilar ham favqulodda vaziyat anketasidagi telefon raqamlarini yangilashlari mumkin.
- Qo'shimcha foydalanuvchi sifatida siz bolaning vasiy ota-onasi siz bilan ulashgan ma'lumotlarni ko'rishingiz mumkin.

### **NYC maktablari hisobida men qayerdan yordam olishim mumkin?**

Agar hisob qaydnomangizga yoki unda qidiruv berishga oid savollar tug'ilsa, o'quvchingizning maktabiga murojaat qiling yoki 311 raqamiga qo'ng'iroq qiling. Shuningdek, siz *NYC maktablari hisobining* quyidagi havoladagi veb-sahifasiga tashrif buyurish orqali ham ko'proq ma'lumotga ega bo'lishingiz mumkin:

<https://www.schools.nyc.gov/nycsa>.

### **Qanday qilib bolamning favqulodda aloqa uchun ma'lumotlarini yangilashim mumkin?**

Agar siz o'z bolasi bilan yashovchi ota-onasi yoki vasiy shaxs bo'lsangiz, Favqulodda aloqa sahifasi orqali uyingizning va mobil telefoningizning raqamini, korxonangiz raqamini, elektron manzilingizni yoki bolangiz tabelidagi qo'shimcha voyaga yetgan shaxslar qaydlarini NYC maktablari hisobingizda yangilashingiz mumkin. Shuningdek, siz yozma muloqot yoki so'zlashuv uchun maq'ul ko'rgan tilingizni ham yangilashingiz mumkin. Shuningdek, siz bolangizning maktabi bilan uning sog'ligiga oid ma'lumotlarni bo'lishish uchun bunday turdag'i axborotni ham yangilashingiz mumkin. Bunday axborot sirasiga bolangiz terapevtining FISH va telefon raqami, istalgan ma'lum diagozlar, allergiyaga oid ma'lumotlar, jismoniy faoliyatni cheklashi mumkin bo'lgan cheklovlar va salomatlik sug'urtasining maqomi ham kiradi.

Agar siz uyingizning manzilini, bolangiz tabelidagi aka-uka, opa-singil ma'lumotlarini yoki ma'lumotlarni muhofaza qilish tartibini yangilashni istasangiz, siz bunday o'zgarish(lar)ni amalga oshirish uchun bevosita maktabingizga murojaat qilishingiz shart.

### **Tahqirlash portaliga oid ma'lumotlarni qayerda batafsilroq topa olaman?**

Agar sizga tahqirlash portalidan foydalanishda yordam kerak bo'lsa yoki diskriminatsiyani to'xtatishda yordam olish uchun qo'shimcha manbalarga ehtiyojingiz bo'lsa, Barcha shaxslar hurmatga loyiq: bo'limiga tashrif buyuring:

*Tahqirlashga qarshi kurashga yordam* veb-sahifasi: <https://www.schools.nyc.gov/school-life/school-environment/respect-for-all>.